



SOLIQ SIYOSATINING XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Qurbonov Rustam Radjapovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,

Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasida (o'qituvchi),

Yuldashov Alisher O'razali o'g'li (talaba).

rqurbonov905@gmail.com

+998 93 791 71 55

Annotatsiya: Ushbu tezisdavlat soliq siyosatining mazmun-mohiyati, uning iqtisodiy subyektlar faoliyatiga ta'siri va moliyaviy barqarorlikka bo'lgan bog'liqligi o'rganilgan. Soliq siyosatining fiskal va tartibga soluvchi funksiyalari asosida korxonalarda soliq yukining darajasi, investitsion faollik, rentabellik va likvidlikka bo'lgan ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekiston soliq tizimidagi oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning amaliy ahamiyati va xususiy sektor moliyaviy holatiga ta'siri muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, fiskal ta'sir, soliq yuki, moliyaviy barqarorlik, investitsiya muhit, soliq islohotlari, investitsion jozibadorlik.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan soliq siyosati mamlakat iqtisodiy strategiyasining ustuvor va tarkibiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, u xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita hamda bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, soliq stavkalarining belgilanish darajasi, soliq imtiyozlari tizimi, soliqqa tortish bazasini shakllantirish mexanizmlari, shuningdek, soliq ma'murchiligining samaradorligi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy natijalari va iqtisodiy faolligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur omillar korxonalarining rentabellik darajasi, investitsion jozibadorligi, moliyaviy



resurslardan foydalanish samaradorligi hamda uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, davlat soliq siyosatining xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan kompleks tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu tezisda soliq siyosatining korxonalar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etuvchi mexanizmlari, mavjud iqtisodiy sharoitdagi amaliy natijalari hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi o'rni zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar asosida yoritib beriladi.

Soliq siyosati davlat tomonidan iqtisodiyotni makroiqtisodiy jihatdan tartibga solishning muhim instrumentlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat davlat byudjeti daromad bazasini shakllantirish va fiskal barqarorlikni ta'minlashga, balki tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash, aholi bandligini oshirish hamda daromadlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qayta taqsimlash kabi strategik vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy iqtisodiy sharoitda samarali soliq siyosatini yuritish davlat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida soliq siyosati korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq yukining maqbulligi, soliqlarning oldindan prognoz qilinishi, soliq qonunchiligining izchilligi va barqarorligi korxonalarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli investitsion rejalashtirishni amalga oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qulay iqtisodiy muhit shakllanadi.

Shuningdek, oqilona olib borilayotgan soliq siyosati tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xavfsizligini mustahkamlash, ularning to'lov qobiliyati



va likvidlilik darajasini saqlab qolish hamda iqtisodiy tavakkalchiliklarni kamaytirishda muhim iqtisodiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Moliyaviy barqarorlik korxonaning o'z moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyati, yuqori to'lovga layoqatlilik darajasi, daromadlar oqimining barqarorligi hamda investitsion resurslarni jalb etish imkoniyatlarining kengligi bilan tavsiflanadigan muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich korxonaning bozor sharoitidagi raqobatbardoshligi, iqtisodiy xavfsizligi va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Korxonada moliyaviy barqarorligini shakllantirish va mustahkamlash jarayonida uning zimmasidagi soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar hajmi muhim ta'sir ko'rsatadi. Xususan, soliq yukining yuqori darajada bo'lishi korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda hajmining qisqarishiga, naqd pul oqimlarining cheklanishiga hamda aylanma mablag'lar yetishmovchiligining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada, korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va investitsion faolligini oshirish imkoniyatlari ma'lum darajada cheklanadi.

Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatida soliq tizimining soddaligi, shaffofligi va tushunarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki soliq ma'murchiligining murakkabligi hamda tez-tez o'zgarib turuvchi normativ-huquqiy talablar tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha moliyaviy va tashkiliy xarajatlarni keltirib chiqaradi. Shu bois, samarali va barqaror soliq siyosatini shakllantirish kichik va o'rta biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Soliq siyosatining xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta'siri bir qator iqtisodiy va institutsional omillar orqali namoyon bo'ladi. Avvalo, soliqlar korxonalar daromadidan undiriladigan majburiy to'lovlar sifatida ularning



moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, soliq to'lovlari korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda hajmini qisqartirib, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklaydi. Shu bilan birga, soliq yukining darajasi korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari, rentabellik ko'rsatkichlari hamda moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muhim iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, soliq siyosati korxonalarining investitsion va amortizatsiya siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish yoki tezlashtirilgan amortizatsiya mexanizmlariga oid soliq imtiyozlarining mavjudligi ishlab chiqarish jarayonining texnologik yangilanishini rag'batlantiradi. Natijada, korxonalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish hamda bozordagi raqobatbardoshlik darajasini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, soliq siyosati xo'jalik yurituvchi subyektlarning nafaqat moliyaviy, balki strategik boshqaruv qarorlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) hamda ijtimoiy soliq stavkalarining yuqori darajada belgilanishi ayrim hollarda korxonalarining investitsion faolligini susaytirishi, iqtisodiy faoliyat hajmini qisqartirishi yoki norasmiy iqtisodiyot ulushining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, soliq stavkalarining iqtisodiy jihatdan maqbul va muvozanatli darajada belgilanishi tadbirkorlik muhitining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan soliq siyosatini liberallashtirishga qaratilgan islohotlar iqtisodiy faollikni oshirish va tadbirkorlik subyektlari moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo'ldi. Xususan, 2019-yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 20 foizdan 15 foizga, keyinchalik esa 12 foizga pasaytirilishi, foyda solig'i va ijtimoiy soliq stavkalarining optimallashtirilishi tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi moliyaviy yukni sezilarli darajada kamaytirdi. Shu bilan bir qatorda, soliq



hisobotlarini elektron shaklda topshirish tizimining joriy etilishi soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirib, vaqt va xarajatlarni tejash imkonini yaratdi.

Bundan tashqari, 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan “Soliq islohotlari strategiyasi” doirasida soliq bazasini kengaytirish, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda tadbirkorlik subyektlariga soliq masalalari bo'yicha konsalting va axborot xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarining takomillashtirilishi biznes yuritish muhitini yaxshilashga xizmat qildi. Mazkur islohotlar natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy imkoniyatlari kengayib, investitsion faollik va iqtisodiy barqarorlik darajasining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, ayrim holatlarda soliq qonunchiligidagi doimiy o'zgarishlar, yangi elektron platformalarning murakkabligi, soliq ma'muriyatchiligining takomillashmagan jihatlari moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, kichik korxonalar elektron hisob-faktura, QR-kodli fiskal tizimlar, onlayn-kassa apparatlari kabi talablarni to'liq bajara olmasligi ularni norasmiy sektor sari yo'naltiradi. Bu esa nafaqat soliqlarning kamayishiga, balki korxonalar faoliyatining moliyaviy xavf ostida qolishiga olib keladi.

Shuning uchun soliq siyosati takomillashuvi nafaqat stavkalarini pasaytirish yoki imtiyozlar berishdan, balki ishonchli va bashoratli tartibga solish muhitini yaratish, barcha darajadagi subyektlar uchun soddalashgan va teng shart-sharoitlar yaratishdan iborat bo'lishi lozim. Xo'jalik yurituvchi subyektlar barqaror ishlashi uchun soliq ma'muriyatchiligi qulay, qonunchilik barqaror, axborot tizimlari esa ochiq va oddiy bo'lishi zarur.

2020–2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan yirik va o'rta tadbirkorlik subyektlari faoliyati bo'yicha amalga oshirilgan statistik tahlillar soliq siyosatini liberallashtirishga qaratilgan islohotlarning ijobiy iqtisodiy natijalarini namoyon etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari



asosida olib borilgan tahlillar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy natijalari va iqtisodiy faolligida sezilarli o'sish kuzatilganligini ko'rsatadi.

Jumladan, 2020-yilda kichik biznes subyektlarining umumiy sof foydasi 27 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakunlariga kelib ushbu ko'rsatkich 43 trillion so'mga yetgan. Mazkur holat mamlakatda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda biznes yuritish muhitini yaxshilashga qaratilgan institutsional o'zgarishlarning amaliy samarasini aks ettiradi.

Shuningdek, tahlillar natijalariga ko'ra, soliqlar bo'yicha o'rtacha yillik tushum hajmi qariyb 18 foizga oshgan bo'lsa-da, soliq stavkalarining optimallashtirilishi va ayrim soliqlar bo'yicha yukning kamaytirilishi korxonalar rentabellik darajasining nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishiga xizmat qilgan. Bu esa, o'z navbatida, soliq yukini maqbullashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsion faolligini oshirish hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, elektron soliq hisoboti tizimlarining joriy etilishi hisob-kitobda aniqlik, nazoratda shaffoflik, auditda avtomatlashtirishni ta'minladi. Bularning barchasi moliyaviy intizom va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ba'zi hollarda soliq qonunchiligidagi tez-tez o'zgarishlar va qoidalarning murakkabligi kichik tadbirkorlik uchun xavf tug'dirmoqda. Bu esa soliq yuki oshmasa-da, moliyaviy risklarni ko'paytirishi mumkin. Natijada, ayrim korxonalar noto'liq hisobot topshirish, kechiktirilgan to'lovlar, yirik jarimalar tufayli o'zining aylanma mablag'lariga zarar yetkazmoqda.

Xulosa

Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, soliqlar korxonalarining foyda hajmi va naqd pul oqimlariga eng bevosita ta'sir ko'rsatuvchi xarajat elementlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, soliq strategiyasini korxonaning



umumiy moliyaviy strategiyasidan ajratib ko‘rib bo‘lmaydi. Aksincha, samarali soliq rejalashtirish mexanizmlarini joriy etish korxonalarining moliyaviy resurslarini oqilona boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan soliq siyosatining samaradorligi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, soliq stavkalarining iqtisodiy jihatdan maqbulligi, soliq imtiyozlarining samarali qo‘llanilishi, soliq ma‘muriyatchiligi tizimining soddaligi hamda elektron soliq xizmatlarining rivojlanganlik darajasi korxonalarining moliyaviy intizomi, rentabellik ko‘rsatkichlari va investitsion jozibadorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, soliq siyosatida barqarorlik, shaffoflik va tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro hamkorlikka asoslangan institutsional yondashuvni ta‘minlash zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv orqali nafaqat davlat byudjeti daromadlarining barqarorligi ta‘minlanadi, balki xususiy sektor subyektlarining moliyaviy holatini mustahkamlash, investitsion faollikni rag‘batlantirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror va izchil rivojlanishiga erishish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-6074-sonli qarori, 2020 yil – “Soliq siyosatini liberallashtirish va soliq ma‘muriyatchiligini soddalashtirish choralari to‘g‘risida”.
3. Davlat soliq qo‘mitasining yillik hisobotlari (2020–2025 yillar).
4. Abduraxmonov N.A., Tojiboeva X.Q. “Buxgalteriya hisobining nazariy va amaliy asoslari”. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2022.



5. Komilov I.M. “Soliqlar va soliq tuzilmasi”. – T.: “Fan va texnologiya”, 2021.
6. Raximova M.D. “Soliq islohoti va zamonaviy soliq tizimi.” Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
7. Bozorov S.R., Islomov A. “Iqtisodiyotni soliqqa tortish mexanizmlari.” Toshkent: Universal, 2018.
8. <https://soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining rasmiy sayti.
9. <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari.